



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Asadova Firo'za Ulug'bek qizi

*Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti Samarqand
filiali 2 bosqich magistranti*

SHARQ MUTAFFAKKIRLARI QARASHLARIDA ODOBU AXLOQGA OID PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

Annotasiya. Mazkur ilmiy maqolada yoshlarni ma'naviy-axloqiy rivojlantirishda buyuk allomalarimizning bebaho asarlaridan va tarixiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan manba'lar, qadimiy qo'lyozmalardan foydalanib shaxs sifatida o'zini anglashi va barkamol inson sifatida shakllanishining psixologik pedagogik yondoshuvlarini ilmiy asoslab berilgan. Ayniqsa tarixiy, birinchi qo'lyozma asarlaridan "Avestoda"da shaxs sifatida o'zini anlash, barkamol avlod tarbiyasi masalalariga alohida e'tibor berib, o'sha davrlardan har bir insonning ma'naviy sog'lomlik darajasi jamiyat taraqqiyotida g'oyat muhimligini tushuntirib bergan.

Kalit so'zlar: yuksak ma'naviyat, madaniyat, axloq, so'z, udum, urf-odat, otda chopish, ov qilish, qalqondan foydalanish, suvda suzish, yugurish, sakrash, nayza otish, qilichbozlikka o'rgatish, fidokorlik, birovga ozor yetkazmaslik, kamgap bo'lib yurish va b.

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL APPROACHES TO MORALITY AND ETHICS IN THE VIEWS OF EASTERN THINKERS

Abstract. This scientific article substantiates the psychological and pedagogical approaches to self-awareness and the development of a well-rounded personality by using the invaluable works of our great scholars, historical sources devoted to education and upbringing, and ancient manuscripts. In particular, special attention is given to the Avesta, where issues of self-awareness as an individual and the upbringing of a perfect generation are discussed. From those times, it has been explained that the

level of a person's spiritual well-being is of great importance in the development of society.

Keywords: high spirituality, culture, morality, word, custom, tradition, horseback riding, hunting, using a shield, swimming, running, jumping, spear throwing, swordsmanship training, selflessness, not causing harm to others, being reserved in speech, etc.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ВОПРОСАМ МОРАЛИ И ЭТИКИ ВО ВЗГЛЯДАХ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

Аннотация. В данной научной статье обоснованы психологические и педагогические подходы к самосознанию личности и формированию всесторонне развитого человека с использованием бесценных трудов наших великих учёных, исторических источников, посвящённых воспитанию и обучению, а также древних рукописей. Особое внимание уделено Авесте, где рассматриваются вопросы самопознания личности и воспитания совершенного поколения. Уже в те времена объяснялось, что уровень духовного здоровья человека имеет чрезвычайно важное значение в развитии общества.

Ключевые слова: высокая духовность, культура, нравственность, слово, обычай, традиция, верховая езда, охота, ползание щитом, плавание, бег, прыжки, метание копья, обучение фехтованию, самоотверженность, ненанесение вреда другим, сдержанность в речи и др.

Kirish. Mamlakatimizda Sharq xalqlari pedagogik tafakkuri namunalaridan yoshlarni ma'naviy-axloqiy rivojlantirish, ularni barkamol inson sifatida shakllantirish, o'zlikni anglash hissini tarkib toptirishda qadriyatli yondashuvlar asosida jamiyatni rivojlantirishning me'yoriy-uslubiy ta'minotini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sharq xalqlari pedagogik tafakkuri maxsuli bo'lgan didaktik vositalar – eng qadimgi yozma yodgorliklar, asotirlar, miflar, Avesto, Qur'on va hadislar, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan asarlarning mazmun-mohiyatini to'g'ri talqin qilgan holda, ta'lim oluvchilarda o'zlikni anglash hissini shakllantirishning mazmuni, shakllari, vositalari va metodlarini aniqlash muhim ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, biz bilamizki, ajdodlarimiz merosi necha asrlarki o'z qimmatini yo'qotmay insoniyat taraqqiyoti uchun mislsiz xizmat qilib kelmoqda. Insonning ma'naviy sog'lomlik darajasi jamiyat taraqqiyotida g'oyat muhimdir. Buyuk mutafakkirlarimiz – Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Imom al-Buxoriy, Aziziddin Nasafiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Pahlavon Maxmud, Maxtumquli asarlarida kelajagimiz bo'lmish aziz farzandlarimizni

shaxs sifatida shakllanishida alohida e'tibor berilib, bebaho ahamiyatga ega bilgan o'gitlarini meros qoldirgan.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati eng avvalo uning og'zaki ijodi – folklor san'atida, doston va eposlarida mujassam topgan bo'lib, ular millatning o'zligini anglash, uning o'ziga xos milliy qadriyatlari va an'alarini saqlash va rivojlantirishda bebaho manba hisoblanadi".[1] Markaziy Osiyo turkiy xalqlari kundalik turmush tarzi ijtimoiy hayotining tashkiliy shakllari so'z, udum, urf-odat musiqa bilan chambarchas bog'liq bo'lgan tarzda rivojlangan. Insoniyat tarixida o'zlikni anglash masalari ilk bor "Avesto" kitobida bayon etilgan. Ajdodlarimizga xos yuksak ma'naviyat, madaniyat, axloq, pedagogik qarashlar rivoji "Avesto"da o'z aksini topgan. "Avesto" nafaqat kadimiy tarixiy yodgorlik, balki millatimizga xos bo'lgan milliy urf-odatlar, an'ana va qadriyatlar hamda madaniyatining tomirlari ming-ming yillarga borib taqalishini tasdiqlaydigan tarixiy manba sifatida ta'lim-tarbiya jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Unda insonning intellektual taraqqiyoti, o'zligini anglash bosqichlari ifodasini topgan. "Avesto"da ifodalangan o'zlikni anglash haqidagi g'oyalar ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan barkamol inson haqidagi dastlabki pedagogik fikrlar hisoblanadi. "Avesto" ilk marotaba ilm va imyon uyg'unligiga erishish lozimligini targ'ib qilgan. Avestoda bayon etilganidek inson o'zini anglashi uchun uchta asosiy holatni o'zida mujassamlashtirishi kerak. "Ezgu fikr", "ezgu so'z", "ezgu amal"ga ega bo'lishi lozim. "Odamlari axloq-odobli va ma'rifatli yurt ravnaq topadi" degan g'oya "Avesto"ning asosini tashkil etadi. "Avesto"da bayon qilinishicha, jismoniy tarbiya bolalarning sog'lom o'sishi va harbiy ishga tayyorlashning muhim omili hisoblangan. Ularni yoshlikdan boshlab, otda chopish, ov qilish, qalqondan foydalanish, suvda suzish, yugurish, sakrash, nayza otish, qilichbozlikka o'rgatish zarurligi ko'rsatilgan. Ularni egallash va ulardan foydalanish ko'nikmalari ustozlar yordamida kitoblardan o'rganilishi tavsiya qilingan.

"Avesto"da ta'lim-tarbiya usullari ham bayon etilgan. Unda ko'rsatilishicha, qizlar 7 yoshdan 15 yoshgacha, o'g'il bolalar esa 7 yoshdan 17 yoshgacha o'qishi majburiy hisoblangan. Yoshlarning diniy, axloqiy va jismoniy tarbiyasiga hamda o'qish va yozishga o'rgatishga alohida e'tibor berish kerakligi ko'rsatib o'tilgan. "Avesto"da ta'lim-tarbiya jarayonida ustoz va shogird burchi, mas'uliyati haqida, noshud tarbiyachilar, ya'ni bilimi sayoz o'qituvchilar haqida alohida fikr yuritgan. "Avesto" yodgorligi ko'p asrlar davomida pedagogika fani uchun ham asosiy ma'naviy-ahloqiy tarbiya vositasi sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Asosiy qism. Buyuk mutaffakkir shoir Alisher Navoiy asarlarida o'zligini anglashga qodir inson isonlarning eng ulug'i ekanligi ta'kidlagan. Insonning o'zligi – uning odamiyligi, insonparvarligi, insoniy go'zal fazilatlarga ega ekanligida nomoyon

bo'ladi deb yozadi alloma. O'zlik, o'zlikni anglash, o'z "menini" topish kabi tushunchalar murakkab falsafiy-psixologik, pedagogik hodisa bo'lsada, Alisher Navoiy ushbu tushunchalarni sodda, xalqchil til bilan o'z asarlarida insonlarga o'zligini anglashga, to'g'ri, holol yashashga yo'l ko'rsatib, ular turli yomon illatlardan qutilishga undagan. Mutaakkir shoir inson ichki dunyosini, o'zligini shakllanishi ta'lim-tarbiya, oila, atrof-muhit, jamiyat bilan bevosita bog'liqligini ta'kidlasada, avvalo shuni ham aytadiki, insonning o'zi o'z hayoti uchun, istak va intilishlari uchun ma'sul bo'lishi lozim.

Insonning kamoloti Alisher Navoiy ta'kidlaganidek, "Insoniyat gulining dilpisandroq shajarai ham ehsondur va odamiylik gulining arjumandroq gavhari ham ehsondur", ya'ni insoniyat bog'ining go'zal daraxti ham, odamiylik gulining qimmatli gavhari ham yaxshilikdir.

"Odamki, demak birla kiromidur bas,

So'z durri ishining intizomidur bas".[2]

Kishining izzatli bo'lishi so'z bilandir, bas, ishining tartibi ham so'z natijasidir.

Abu Nasr Forobiyning insoniy munosabatlarni baholovchi quyidagi fikrlari ham ahamiyatlidir: "Haqiqiy baxtga erishish maqsadida o'zaro bir birlariga yordam qiluvchi kishilarni birlashtiruvchi yurt fazilatli yurtdir. Baxtga erishish maqsadida bir-birlariga o'zaro yordam bergan xalq fazilatli xalqdir".[3]

Xusayn Voiz Koshifiy shogirdning qanday sifatlarga ega bo'lishi lozimligini quyidagicha bayon etadi: "Agar muridning ziynati nima deb so'rasalar, bu quyidagilardan iborat deb javob bergil: zuhd, taqvo, mujohada, o'z nafsini yengish uchun shijoat ko'rsatish, hammaga birday beminnat xayru - ehson qilish, ishining binosini sidq asosiga qurish, o'zni tanish darajasiga ko'tarilguncha ilm egallash, odobga muntazam rioya etish, birodarini ravshan etadigan muloyim xulqli bo'lish, yorlarga dag'allik qilmaslik, insof chizig'idan chiqmaslik, fidokorlik, birovga ozor yetkazmaslik, kamgap bo'lib yurish, lekin kerakli joyda munosib gapni topib aytish, oliy himmatlilik, mayda-chuyda ishlar bilan qanoatlanmaslik, omonatni saqlay olish, rahm-shafqatli bo'lish, ota-ona va pir-ustozlar ra'yidan chiqmaslik. Kimki ushbu sifatlar ila muzayyan bo'lsa, darhaqiqat, ziynatli muriddir".[4] Ajdodlarimiz ta'kidlaganlaridek, hikmat ilm va aql bilan haqqa erishishdir. Ilm va aql esa insonning o'zligini anglashga ko'maklashuvchi asosiy vosita hisoblanadi. Shuning uchun allomalarimizning hikmatlarini o'quvchi anglashi lozim bo'lgan misollardan keltiramiz. Masalan Jaloliddin Rumi shunday ta'kidlaydi:

1. "Insonni otash emas, o'z g'aflati yoqar. Barchadagi kamchilikni ko'rar-u, ammao o'ziga ko'rdek boqar. Nimaga qanday boqsang, u ham senga shunday boqar".

2. "Insonlardagi go'zallik bu – yuzdir, yuzdagi go'zallik esa – ko'zdir. Ammo, insonni inson qilgan bu uning tilidan chiqadigan – so'zdir".

3. “Yaxshi do’ssti borning oynaga ehtiyoji yo’qdir”.

4. “Hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun uch narsa kerak; diqqat, intizom va harakat”.

Xulosa. Bu hikmatlarni ma’nosini har bir o’quvchiga tushuntirish lozim chunki insonning ma’naviy sog’lomlik darajasi jamiyat taraqqiyotida g’oyat muhimligini anglatadi, demak: inson hamisha hushyor bo’lishga, o’zini hatti harakatini nazorat qilish, ezgu o’yda bo’lish; tiliga ehtiyot bo’lish, axloq va odobga rioya etish; do’stlikni qadriga yetish, yaxshi do’st bo’lish; har ishda diqqatli, e’tiborli, tartibli, maqsad sari tinimsiz intilish.

Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 maydagi “Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4320-son Qarori.

2. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: 1996. – 192 b.

3. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. -T.: A.Qodiriy nom. Xalq meros nashr, 1993. – 224 b.

4. Komil inson haqida to’rt risola / (fors-tojik tilidan N.Komilov tarj.) -T.: Ma’naviyat, 1997. -280 b.

5. Komil inson haqida to’rt risola / (fors-tojik tilidan N.Komilov tarj.) -T.: Ma’naviyat, 1997. -280 b.